

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
QARARI**

2023 - yil 3 - noyabr

387-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Beruniy tumani hududidagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish
qo'mitasining doimiy foydalanishidagi yer maydonlarining bir qismini Beruniy
tumani hokimligi zaxira yer fondiga qaytarib olish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, Qoraqalpog'iston Respublikasining «Yer to'g'risida»gi Qonuni 4 va 35-moddalariga asosan, Beruniy tumani hokimligining 2023-yil 25-oktabr kungi 1980-sonli xatini ko'rib chiqib Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 6-oktabrdagi 1-2/671-sonli rozilik xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Beruniy tumani hokimligi zaxira yer fondiga qaytarib olinayotgan yer maydonlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunbayev) ushbu qarorga asosan yer fondiga tegishli o'zgartirishlar kiritsin.
4. Ushbu qarorning qonunchilikka muvofiq bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari D.Kaypov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 3-noyabrdagi
387-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Beruniy tumani hokimligi zaxira yer fondiga qaytarib olinayotgan yer maydonlari to'g'risida

MA'LUMOT

T/r	Tuman nomi	Yerdan foydalanuvchi	Hudud nomi	Koordinatalari	Kontur raqami	Umumiy maydoni, ga	shundan			
							Yaylovlar	Suv osti yerlari	Yo'llar va mol haydab o'tiladigan	Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar
1	Beruniy tumani	Ipakchilik va Jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi	Abay OFY Yangiobod nayman massivi	41°59'51.59"C 60°34'46.25"B	8q	6,0	6,0			
				41°59'44.91"C 60°34'46.36"B						
				41°59'44.96"C 60°34'33.34"B						
				41°59'51.47"C 60°34'33.22"B						
1	Jami				1	6,0	6,0			